



## QO'SHMA GAPNI O'QITISH USULLARI

**Raximova Zebo Xolboyevna**

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 13-sonli maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ona tili fanida o'rganilishi va o'qitilishi murrab hisoblangan qo'shma gaplarning tuzilishi hamda turlarini o'qitish tartibi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qo'shma gap, ularning turlari, murakkab qo'shma gap, nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilma, ko'chirka gap.*

**Qo'shma gap** – ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik

**Murakkab qo'shma gap** – turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi

**Nisbiy so'zlar** – qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashga xizmat qiluvchi so'roq va ko'rsatish olmoshlari

**Ko'makchili qurilma** – ergash gapni bosh gapga bog'lovchi shuning uchun, shu sababli, shu bois kabi birliklar

**Ko'chirma gap** – bironing aynan keltirilgan yoki o'zining hech o'zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gapi.

Qo'shma gaplarni quyidagicha tasniblab olamiz:

1. Bog'langan qo'shma gaplar:

- 1) biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
- 2) zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
- 3) ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
- 4) bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar:

- 1) kesim ergash gapli qo'shma gaplar;
- 2) ega ergash gapli qo'shma gaplar;
- 3) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar;
- 4) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar;
- 5) hol ergash gapli qo'shma gaplar

Hol ergash gapli qo'shma gap o'z navbatida o'rin, payt, to'siqsizlik ergash gapli qo'shma gap kabi turlarga bo'linadi.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gap mavzusini o'tishda badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, ularni izohlash, mustaqil ravishda bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish singari topshiriqlar bajarilishi mumkin. O'quvchilarda nuqtalar o'rniga teng bog'lovchilardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish, qismlarni goh-goh, dam-dam, ba'zan-ba'zan, yo-yo singari ayiruv bog'lovchilari bilan biriktirib, ma'noda qanday o'zgarish sezilganligini aniqlash kabi mustaqil ishlar tavsiya etiladi.



Bog'langan qo'shma gap turlaridan biri sifatida qaralayotgan bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gapni o'tishda quyidagi misol keltiriladi va unda qisman chog'ishtirish-qiyoslash mazmuni mavjudligi ta'kidlanadi. "Rejadagi ishni bajara olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan" . "Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak" . Bog'langan qo'shma gap quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularning mazmun jihatidan bog'lanishi.

2. Sodda gaplarning bog'lanish yo'li, bog'lovchilarning turi.

3. Sodda gaplar orasida qo'llangan tinish belgilari

4. Gap bo'laklari

**Namuna:**

Urushdan boylar manfaat topdi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ldi.

1) ikki sodda gap (qism) bor: urushdan boylar manfaat topdi, kambag'allar xonavayron bo'ldi: zidlash munosabati mavjud.

2) .sodda gaplar o'zaro vergul bilan ajratilgan;

3) gap bo'laklarini aniqlash: boylar – ega, manfaat topdi – kesim, urushdan – to'ldiruvchi; kambag'allar – ega, xonavayron bo'ldi – kesim.

“Ergashgan qo'shma gap” mavzuini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki ko'makchili qurilma vositasida qo'shma gaplar tuzish vazifasi topshiriladi.

1. Bahor keldi. Qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladi. – Bahor keldi, shuning uchun qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladilar.

Mavzuni o'rganishda bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtirish, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplardagi ma'noviy munosabatni aniqlash, ulardan o'rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi. O'quvchilar “Ergash gapli qo'shma gap” tushunchasini sharhlay olishlari, ergash gapli qo'shma gaplarda qaysi gap boshqa bir gapni to'ldirib, aniqlab kelishi haqida xulosa chiqarishlari, ergash gapli qo'shma gapni kengaygan birikmali sodda gapga aylantira olishlari lozim.

Ergash gapni bosh gapga bog'lashda turli grammatik vositalardan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Darslikda ergashgan qo'shma gaplarni ularda ishtirok etgan bog'lovchi vositalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan.

1. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gap (chunki, negaki, go'yo, agar, toki)

2. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli)

3. Deb so'zi yordami bilan ergashgan qo'shma gap

4. Shart mayli qo'shimchasi yordami bilan ergashgan qo'shma gap (sa)

5. Ko'rsatish olmoshi yordamida ergashgan qo'shma gap

6. Nisbiy so'zlar vositasida ergashgan qo'shma gap (kim – u, kimning – uning, qayerda – shu yerda)

Maktabda ergash gapning ega, kesim va to'ldiruvchi kabi turlarini o'rgatishdan maqsad o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishdir. Bunday nutq ko'nikmasi,



odatda, grammatikadan o'tilgan nazariy ma'lumotlarni muntazam ravishda amalda qo'llash, mashq qilib ko'rish orqali hosil qilinadi.

Ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Bosh gap va ergash gap.
2. Ergash gapning turi
3. Ergash gapning o'rni va tinish belgilari
4. Ergash gapning bosh gapga bog'lanish yo'li
5. Gap bo'laklari.

Shuni bilib qo'yingki, xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar.

1) Bosh gap – Shuni bilib qo'yingki; ergash gap – xodimlar bir joyda qotib qolgan rahbarni yoqtirmaydilar;

2) to'ldiruvchi ergash gap;

3) ergash gap bilan bosh gap vergul bilan ajratilgan;

4) bosh gap ergash gapga –ki bog'lovchisi vositasida bog'langan;

5) gap bo'laklarini aniqlash: (shuni – to'ldiruvchi, bilib qo'yinki – kesim; xodimlar – ega, bir joyda – qotib qolgan – aniqlovchi, rahbarni – to'ldiruvchi, yoqtirmaydilar – kesim).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning sodda gaplari o'zaro bog'lovchilarsiz, ohang yordamidagina birikadi. Bunday gaplar orasida yozuvda vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul va tirelar qo'yiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gapning bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga o'xshash tomonlarini o'quvchilarga tushuntirish uchun bog'lovchilarni ishtirok ettirib gap tuzish va ularni bog'lovchisiz qo'shma gaplarga yoki ergashgan qo'shma gaplarga aylantirish mashqlari o'tkaziladi. Eshik ochildi va xonaga rassom kirib keldi. Eshik ochildi, xonaga rassom kirib keldi. Eshik ochildi, chunki xonaga rassom kirib keldi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Qo'shma gap tarkibidagi qismlar va ularning mazmun jihatidan bog'lanishi.

2. Qismlarning bog'lanish yo'li.

3. Qismlar orasida qo'llangan tinish belgilari.

4. Gap bo'laklari.

Qalandarov smetani o'qimasdan ovozga qo'ymoqchi bo'lgan edi, Saida unga majlis raisi borligini eslatdi. (A.Q.)

1) gapdagi qismlar (yani sodda gaplar) Qalandarov smetani o'qimasdan ovozga qo'ymoqchi bo'lgan edi – 1-gap; Saida unga majlis raisi borligini eslatdi – 2-gap; qiyoslash mazmuni bor.

2) ohang orqali bog'langan;

3) ohang yozuvda vergul bilan ifodalangan;

4) gap bo'laklarini aniqlash; Qalandarov – ega, ovozga qo'ymoqchi bo'lgan edi – kesim, smetani o'qimasdan – vaziyat holi; Saida – ega, eslatdi – kesim, unga – to'ldiruvchi, majlis raisi borligini – to'ldiruvchi.

Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar hamda ularning tinish belgilari haqidagi ma'lumot o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda katta yordam beradi. O'quvchilar boshqalarning nutqini aynan berish usullarini, shuningdek, ularni o'zlashtirib aytish kabi stilistik malakalarni egallab oladilar. O'quvchilar o'z yozma



ishlarida ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning turli shakllaridan foydalana bilishlari, bunda nutqning emotsionalligiga e'tibor qaratishlari lozim. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni o'rgatish adabiy o'qish darslari hamda o'quvchilarga ijodiy imlo yozdirish bilan uzviy bog'lanishi shart.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. “O'zbek tilining imlo lug'ati”, Toshkent-1995-yil, “O'qituvchi” nashriyoti.
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. “Ona tili”, 5-sinf darsligi. Toshkent-2012-yil, “Ma'naviyat” nashriyoti.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. “Ona tili”, 6-sinf darsligi. Toshkent-2013-yil, “Tasvir” nashriyoti.
4. “O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim”. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.
5. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.:O'qituvchi, 1980.66-bet
6. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.:Sharq, 2000. 110-bet
7. Muhiddinov A.G' O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet